



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSETETI
KOMMUNAL VA MEHNAT GIGIYENASI, EKOLOGIYA KAFEDRASI**

*“Urbanizatsiya va globalizatsiya sharoitida ekologik muammolar va ularni aholi salomatligiga ta’siri” mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

*Республиканская научно-практическая конференция на тему
«Экологические проблемы в условиях урбанизации и глобализации и их воздействие на здоровье населения»*



TOSHKENT-2026

*“Urbanizatsiya va globalizatsiya sharoitida ekologik muammolar va ularni aholi salomatligiga ta’siri” mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya kafedrası**



***“URBANIZATSIYA VA GLOBOLIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK
MUAMMOLAR VA ULARNI AHOLI SALOMATLIGIGA TA’SIRI”
MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI***

***Toshkent shahrida 2026 yil 12 martda o‘tkazilgan
Respublika ilmiy-amaliy anjuman
materiallari to‘plami***

Toshkent -2026

*“Urbanizatsiya va globalizatsiya sharoitida ekologik muammolar va ularni aholi salomatligiga ta’siri” mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

Tahrir hay’ati:

- Boymurodov Sh.A.** - Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori t.f.d., professor
- Iskandarova G.T.** - Toshkent davlat tibbiyot universiteti Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya kafedrasini mudiri, t.f.d., professor
- Tashpulatova M.N.** - Toshkent davlat tibbiyot universiteti Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya kafedrasini katta o‘qituvchisi, PhD
- Rashidov V.A.** - Toshkent davlat tibbiyot universiteti Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya kafedrasini assistenti

Moderatorlar:

Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya kafedrasini dotsenti:

Yusupxo‘jayeva A.M.;

Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya kafedrasini assistentlari:

Xadjayeva U.A., Islamova G.A.

To‘plamga 2026-yil 12-martda bo‘lib o‘tgan “Urbanizatsiya va globalizatsiya sharoitida ekologik muammolar va ularni aholi salomatligiga ta’siri” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalari kiritilgan.

*To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni va sifati uchun
muallif(lar) javobgardir*

*“Urbanizatsiya va globalizatsiya sharoitida ekologik muammolar va ularni aholi salomatligiga ta’siri” mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Atrof-muhitning ifloslanish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilingan.

Atrof-muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, atrof tabiiy muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini bashorat qilish, davlat ekologik nazoratini doimiy axborot bilan ta’minlash, ifloslantiruvchi manbalarning holati va atrof-muhitga ta’siri monitoringini amalga oshirish atrof tabiiy muhit monitoringi dasturi tasdiqlangan va unga asosan, suv resurslari, atmosfera havosi va tuproqlarni ifloslantiruvchi manbalar monitoringi; atmosfera havosi, yer usti va yer osti suvlari hamda yerlarning ifloslanishi monitoringi; xavfli ekzogen geologik jarayonlar monitoringi; ko‘llar ekotizimlari monitoringi; o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlari monitoringi; atrof-muhitning transchegaraviy ifloslanish monitoringi; atrof tabiiy muhit davlat monitoringining elektron ma’lumotlar bazasini yagona geoaxborot ma’lumotlar bazasiga integratsiya qilish; tahlil laboratoriyalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va o‘lchov-nazorat asbob-uskunalarini modernizatsiya qilish ilmiy ishlar va innovatsion tadbirlarni amalga oshirilmoqda.

**ATMOSFERA HAVOSI IFLOSLANISHI MONITORINGINING
AHAMIYATI**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Atrof muhit gigiyenasi kafedrası

Sherqo‘ziyeva G.F., Salomova F.I., Asenbayeva I.S., Yermatova S.G.,

Toshpulatov B.M., Fayziyev O‘.

Urbanizatsiya jarayonlarining tezlashishi ham havo ifloslanishining kuchayishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bugun aholining yarimdan ko‘pi shaharlarda yashaydi, shaharlar bir tomondan ko‘pincha ifloslanish manbai bo‘lsa, boshqa

*“Urbanizatsiya va globalizatsiya sharoitida ekologik muammolar va ularni aholi salomatligiga ta’siri” mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

tomondan, aynan shu yerda havo ifloslanishining oqibatlarini ayniqsa kuchli seziladi. Havoning ifloslanishi chegara bilmaydi – bir mamlakatdagi manbadan havoga chiqarilgan tashlanma boshqa, ba’zida esa minglab kilometr naridagi mamlakat hududiga o’tishi va cho’kishi mumkin. Atmosfera havosi tabiiy resurslarning tarkibiy qismi sifatida umummilliy boylik hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Inson salomatligiga zararli ta’sir ko’rsatishi sababli atmosfera havosining ifloslanishi har doim tashvish uyg’otgan. Havoning ifloslanishi inson salomatligiga salbiy ta’sir ko’rsatib, allergiya va nafas olish tizimi kasalliklarini keltirib chiqaruvchi sabablardan biri hisoblanadi. Har bir yirik shahar atmosferasida yuqori miqdorda ifloslantiruvchi moddalar kuzatiladi, ular ekotizim va aholi salomatligiga salbiy ta’sir etadi. Atmosfera havosining sifat va miqdoriy tarkibi shakllanishida ham antropogen, ham tabiiy ifloslanish manbalari katta rol o’ynaydi. Xo’jalik faoliyati natijasida energetika, transport, qishloq xo’jaligi, chiqindilarni qayta ishlash kabi sohalarda havoga ifloslantiruvchi moddalar yoki kimyoviy birikmalar chiqariladi, ular turli kimyoviy reaksiyalarga kirishib, atmosferada ikkilamchi ifloslanishga olib keladi.

Atmosfera tabiiy tarkibining inson faoliyati natijasida ro’y bergan o’zgarishlari havoning ifloslanishiga olib keladi, ushbu ifloslanish ko’lamini faqat atmosfera havosini monitoring qilish yordamida aniqlash mumkin. Monitoringni tashkil qilish havo sifatini baholash, uning sifatini yaxshilash bo’yicha samarali choralarini rejalashtirish uchun juda muhimdir.

Atmosfera havosi ifloslanishi monitoringi – atmosfera havosi ifloslanishining o’tgan, hozirgi holatini baholash hamda kelajakdagi holatini prognozlash maqsadida ma’lumot beruvchi vaqt va makondagi doimiy uzoq davom etadigan kuzatuvlar tizimidir. Atmosfera havosi ifloslanishi monitoringi ifloslantiruvchi moddalar mavjudligini qayd etish va ularning anomal konsentratsiyalarini aniqlash, shuningdek, atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish hamda aholi salomatligiga zararli ta’sirni kamaytirish bo’yicha tezkor choralar qabul qilish uchun ifloslantirish

*“Urbanizatsiya va globalizatsiya sharoitida ekologik muammolar va ularni aholi salomatligiga ta’siri” mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

manbalarini aniqlashga imkon beradi. Atmosfera havosi ifloslanishi monitoringi atmosfera havosi holati ustidan ishonchli nazoratni ta’minlab, avariyaaviy vaziyatlar yuzaga kelish ehtimoli to’g’risida, oldindan ogohlantirish imkonini beradi. Havoning ifloslanish oqibatlarni bartaraf etish bo’yicha profilaktik choralar ishlab chiqish, hamda aholi va atrof-muhitga zararli ta’sirni kamaytirish imkonini beradi.

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA YUQUMLI KASALLIKLAR
PROFILAKTİKASINING DOLZARB MUAMMOLARI**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Atrof muhit gigiyenasi kafedrası

Sherqo’ziyeva G.F., Salomova F.I., Toshpo’latov B.M., Fayziyev O’.

Aholi salomatligini muhofaza qilish borasida profilaktika chora-tadbirlarini samarali muvofiqlashtirish tizimi mavjud emasligi, fuqarolarning jismoniy faolligi darajasini qo’llab-quvvatlash va sog’lom turmush tarzini yuritishda kelishilgan choralar ko’rish imkonini bermayapti. Aholi salomatligini saqlash borasida faol, foydali ishlarni amalga oshirish, xalqimizning tibbiy madaniyatini xalqimizning tibbiy madaniyatini yuksaltirish eng muhim dolzarb masaladir. Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti tahliliga ko’ra, davolash inson salomatligini ta’minlashning 10 foiz omili, xolos. Irsiy omillar 15 foiz, atrof-muhit 20 foiz, eng asosiysi, turmush tarzi 55 foizni tashkil etadi. Shu sababli aholining tibbiy madaniyatini oshirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollarning sog’ligini mustahkamlash, sog’lom avlod tug’ilishi va uni tarbiyalashning ustuvor yo’nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori qabul qilingan.

Insonning tibbiy madaniyatini oshishiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar quyidagilar: - aholini ijtimoiy himoya qilinishining davlat siyosati darajasiga ko’tarilishi; - aholini ijtimoiy himoyasini huquqiy asoslarining yaratilishi; - huquqiy

“Urbanizatsiya va globalizatsiya sharoitida ekologik muammolar va ularni aholi salomatligiga ta’siri” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani

Safarov M.B., Toshpo‘latova M.

SHAHAR CHIQUINDILARINI QAYTA ISHLASH VA ULARDAN FOYDALANISH 57

Safarov M.B., Nabijanova Z.

O‘ZBEKISTON CHIQUINDILAR MUAMMOSINI HAL QILISH BO‘YICHA NORMATIV-HUQUQIY HujjatlAR 59

Safarov M.B., Sobirova H.

CHIQUINDILARNI BOSHQARISH BO‘YICHA XORJJIY DAVLATLAR TAJRIBASI 61

Safarov M.B., Zayniddinova X.M.

AQLIY RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR XONALARINING ICHKI MUHIT DIZAYNI 62

Tuxliyeva M.R., Mirzanazarova E.Y.

TA‘LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK TARBIYA ORQALI MAISHIY CHIQUINDILARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI 63

Ummatova D.O., Aynakulov M.A.

PROFILAKTIK TIBBIYOTDA TELEMEDITSINA VA SUN‘IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING BEMOR PSIXOLOGIK HOLATIGA TA‘SIRI 66

Xudoyberdiyeva X.O.

BACHADON BO‘YNI SARATON KASALLIGINI KELIB CHIQUISH SABABLARIGA ATROF - MUHIT OMILLARINING O‘RNI 68

Shabdullayeva L.O., Xoliqova M.T.

YUQUMLI VA YUQUMLI BO‘LMAGAN KASALLIKLARNING EPIDEMIOLOGIYASI VA PROFILAKTIKASI 72

Shabdullayeva L.O., Xoliqova M.T.

ATROF-MUHITNING IFLOSLANISHI VA EKOLOGIK MONITORING 78

Sherqo‘ziyeva G.F.

ATMOSFERA HAVOSI IFLOSLANISHI MONITORINGINING AHAMIYATI 79

Sherqo‘ziyeva G.F., Salomova F.I., Asenbayeva I.S., Yermatova S.G., Toshpulatov B.M., Fayziyev O‘.

GLOBALLASHUV SHAROITIDAYUQUMLI KASALLIKLAR PROFILAKTIKASINING DOLZARB MUAMMOLARI 81

Sherqo‘ziyeva G.F., Salomova F.I., Toshpo‘latov B.M., Fayziyev O‘.

GLOBOLIZATSIYA SHAROITIDA SUV HAVZALARINING IFLOSLANISH MUAMMOLARI 83

Sherqo‘ziyeva G.F., Abdurashidova D.J.